



Abdulla Avloniy Asarlari Va Hikoyalari Orqali Boshlang'ich Sinf O'quvchilarida Do'stlik Va Ahillik Sifatlarini Shakllantirish

Hayitov A. I.

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

Azizova S.

Nizomiy nomidagi TDPU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada buyuk pedagog Abdulla Avloniy asarlari va qalamiga mansub hikoyalari orqali farzandlarimizni tarbiyalashda ularga do'stlik, mehr kabi ahloqlarni shakllantirishda muhim jihatlari va usullari haqida soz borgan.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya, odob, axloq, do'stlik, tarbiyali shaxs, axloqiy sifatlar, yaxshi xulq, yomon xulq, manaviyat, madaniyat.*

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmandlik-to'quvchilik bilan shug'ullangan. Piyonbozorda (hozirgi Navoiy teatri maydoni), Yarmarka bozorida (hozirgi San'at muzeyi atrofi) bo'z va chit bilan savdo qilardi. «Onamning oti Fotimadir», deb yozadi adib o'z tarjimai holida. Abdulla Avloniy 7 yoshidan o'qchidagi eski maktabda Akromxon domlada savod chiqardi. 1890-yilda shu mahalladagi madrasaga o'tdi. So'ng Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxunda tahsil oladi. Ammo tirikchilikning og'irlashuvi o'qishga imkon bermaydi. «1891-yildan boshlab, faqat qish kunlarida o'qib, boshqa fasllarda mardikorlik qilib ishladim», — deb yozadi Avloniy. Ko'p o'tmay bu ham barham topdi. U butunlay ishga sho'ng'ib ketdi. O'zi aytgandek, «binokor»likni o'rgandi, «g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari» bilan mashg'ul bo'ldi. Adabiyotga havas unda shu yillari uyg'ondi. Navoiy she'riyatiga, Fuzuliy g'azallariga mehr qo'ydi. So'ngsiz bir ishtiyoq bilan fors tilini o'rgandi. Sa'diy va Hofizning sehrli olamidani zavq-shavq oldi. Nihoyat bular o'z samarasini berdi. O'zi kamtarona qayd qilganidek, «she'r yozishga tutindi». Avloniy bu vaqtni 1894-yil deb ko'rsatadi. Afsuski, yoshlik davrida yaratgan she'rlarining hech biri bizgacha saqlanmagan. Shoirning bizga ma'lum she'riari 1905-yildan keyin yozilgan, Buni ularning ruhi va xarakteri ochiq-oydin ko'rsatib turadi.

Avloniy yozgan asarlarida hikoyalari va darsliklarida asosan tarbiya, ta'lim va ahloqqa juda katta e'tibor qaratadi. Avloniy asarlari bir-biriga qarama-qarshi tarzda yozgan. Ya'ni yaxshi va yomon, odob va odobsiz, aql va nodon kabi. Avloniyning hikoyalari orasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshiga va ularning kelajakda yetuk bo'lib ulg'ayishiga yordam beradigan, do'stlikka, birdamlikka undaydigan hikoyalari ko'rib chiqsak.

«Yolg'on do'st», ikkinchisi esa «Chin do'st» deb nomlangan. Adib mazkur masalaning kishilar hayotida favqulodda ahamiyatga ega ekanligini yaxshi angelaydi. Shuning uchun ham unga alohida e'tibor bilan qaraydi. Ayniqsa, haqiqiy do'st orttirish yoshlikdan boshlanishini, binobarin, bu sifatlarni yoshlikdan singdirib borish zaruratini yaxshi his qiladi.



«Yolg'on do'st» L N. Tolstoyning «ikki do'st» hikoyasining tarjimasidir. Uni dastlab Aliasqar Kalinin «Muallimi soniy»siga tajjima qilib kiritgan edi. Uning mazmuni shunday: ikki do'st safarga chiqadilar. Yo'l tog' ichidan o'tar edi. Do'stlarning biri uzoqdan yo'lbarsni ko'rib qoladi va yugurgancha daraxtga chiqib oladi. Ikkinchisi shoshilib, nima qiiishini bilmay qoladi va yerga cho'zilgancha o'zini o'likka solib yotib oladi. Yo'lbars uni iskab ko'radi va o'lik gumon qilib, qaytib ketadi. Daraxt tepasiga qochib yashiringan o'rtoq daraxtdan tushadi va yo'lbars uning qulog'iga nima deb ketganini bilmoqchi bo'ladi. «Shodlig'ingda o'rtoq bo'lib, g'am vaqtinda tashlab qochadirg'on nomard kishilar ila yo'ldosh bo'lma deb ketdi», — javob beradi u.

Ikkinchi hikoya she'r bilan yozilgan. Mazmuni shunday:

ikki kishi do'stlashadi. Bir kuni safarga chiqadilar. Nogahon bir daryoga duch keladilar. Kemaga tushadilar. Nima bo'ladiyu, kema ag'darilib, do'stlar suvga qulaydilar. Suvchi xabar topib, qutqarmoqchi bo'lganida quyidagi manzarani ko'radi:

Ul ikki do'stning birini tutsa suvchiga dedi:

Qo'y meni, avval borib do'stimni qutqar beziyon.

Suvchi borib ushlasa o'rtoq'ini,

Ul ham aytar do'st qutulsin deb fig'on.

Shoir shunday xulosalaydi:

Ko'rdingizmi, ey suchuk o'g'lonlar,

Do'stlig'din bu siza bir doston.

Ko'rganimizdek, chin do'st bilan yolg'on do'st bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan va do'stlikdagi sadoqat, mardlik kabi fazilatlar ulug'lanib, soxta do'stlik, nomardlik kabi yomon xususiyatlar qoralanmoqda. Biz birinchi hikoyani o'quvchilarga o'qib tushuntirishimiz, har qanday vaziyatda ham do'stlarni tashlab ketmaslik ularga doimo yordam qo'lini cho'zishi kerakligini uqtirishimiz kerak. Do'stlari orasidagi munosabatni mustahkamlashga turtki bo'ladi. Ikkala hikoyani ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsliklariga kiritishimiz maqsadga muvofiq. Bu hikoyalarni o'quvchilarga tushuntirib taqqoslashni o'rgatishimiz. Qiyin vaziyatlarda ham tashlab ketmaslikni ta'kidlab o'tishimiz kerak. Birinchi hikoyadan ko'rinib turiptiki do'stini yolg'iz tashlab daraxt shoxiga chqib ketgani, qiyin vaziyatda do'stiga yordam bermaganini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi hikoyadan ko'rinib turiptiki ikkala do'sti ham cho'kib ketayotgan bo'lsada meni emas do'stimni qutqaring deb do'stini qutqarishini so'rayotganini o'quvchilarga tushuntirishimiz kerak. Agar biz bu hikoyalarni o'quvchilarga to'g'ri yetqaza olsak darsliklarga kiritilsa o'quvchilarni do'stlikka nisabtan fikri, dunyo qarashi va ahilligi yanada mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shavkat Mirziyoyev nutqi. O'qituvchi va murabbiylarni bayram bilan tabrigi. 2022. 30. 09.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son. Ta'lim to'g'risida gi qonun.
3. Zunnunov, A. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llamna. Toshkent- 2004.
4. Hayitov, A. I., & Abdushukurova, D. (2022). Effective ways to organize mother tongue lessons in primary classes on the basis of interactive techniques. Conferencea, 30-32.
5. Hayitov Anvar Isomiddin ugli1, Mirkholikova Charos2, Niyozmetova Nargiza Bakhromovna3, Magdieva Marhabo4 . Theory of development of ecological culture of future primary class teachers based on an integrative approach. annals of forest research <https://www.e-afr.org/>. Ann. For. Res. 65(1): 2275-2282, 2022 ISSN: 18448135, 20652445. 2275-2282-betlar.